



ABOUT IDEAS MATURING IN SUFISM

Zafar Tuychiev

Lecturer

creative school named after Halima Khudoiberdieva

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

E-mail: tuychiyevzafar1984@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: concept, mysticism, tolerance, soul, maturity, order, humanism, moral purity, inner freedom, enlightenment.

Received: 09.10.24

Accepted: 11.10.24

Published: 13.10.24

Abstract: This article contains some opinions regarding the important ideas of Sufism leading to perfection. In Sufism, there is a consistent attitude towards ideas aimed at developing in young people the qualities of compromise, deep reflection and tolerance. In addition, a scientific analysis is given of the importance of Sufi ideas in achieving maturity.

SO‘FIYLIKDA KAMOLOTGA ELTUVCHI G‘OYALAR XUSUSIDA

Zafar Tuychiyev

o‘qituvchi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi

Farg‘ona davlat universiteti

Farg‘ona, O‘zbekiston

E-mail: tuychiyevzafar1984@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: konsepsiya, tasavvuf, bag‘rikenglik, qalb, kamolot, tariqat, gumanistik, axloqiy poklik, ichki ozodlik, ma‘rifat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada so‘fiylikning kamolotga yetaklovchi muhim bo‘lgan g‘oyalariga xos ba‘zi fikr-mulohazalar yuritilgan. So‘fiylikda yoshlardagi murosa, teran mulohaza qilish, bag‘rikenglik xislatlarni rivojlantirishga qaratilgan g‘oyalarga izchil munosabat bildirilgan. Qolaversa, so‘fiylik g‘oyalarining kamolotga erishishdagi ahamiyati xususidagi ilmiy tahlillar keltirilgan.

ОБ ИДЕЯХ, СОЗРЕВАЮЩИХ В СУФИЗМЕ

Зафар Туйчиев

Учитель

*творческой школы имени Халимы Худойбердиевой**Ферганский государственный университет*

Узбекистан

E-mail: tuychiyevzafar1984@gmail.com**О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: концепция, мистика, толерантность, душа, зрелость, порядок, гуманизм, нравственная чистота, внутренняя свобода, просвещение.

Аннотация: Эта статья содержит некоторые мнения, касающиеся важных идей суфизма, ведущих к совершенству. В суфизме существует последовательное отношение к идеям, направленным на развитие у молодежи качеств компромисса, глубокой рефлексии и толерантности. Кроме того, дается научный анализ важности суфийских идей в достижении зрелости.

KIRISH

So‘fiylik g‘oyalarining yoshlar ma‘naviy-axloqiy tarbiyasidagi ahamiyatini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish, jamiyatda turli qiymatlarning yangicha ko‘rib chiqilishi va zamonaviy globallashuv jarayonlarida, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘fiylikning ruhiy kamolotga yo‘llangan g‘oyalari, jumladan, Allohga bo‘lgan muhabbat orqali komillikka erishish konsepsiyasi, yosh avlodning ma‘naviy dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, imom G‘azzoliy, “Tasavvuf qalbni faqatgina Allohga yo‘naltirib, mosivo – Allohdan boshqa barcha narsalardan butkul aloqani uzishdir”[1,18], deb hisoblaydi. Tasavvufni obektiv borliqdan, hayotdan ayricha voqelik sifatida qarash Ibn Xoldunda yana keskinroq ifodada ko‘zga tashlanadi. U yozadi: “Tasavvuf ibodatda astoydil davom etmoq, Allohga yo‘nalmoq, dunyoning bezak va yolg‘onchiligidan yuz o‘girmoq, ko‘pchilik e‘tibor beradigan zavq, mol-dunyo va shon-shuhratdan ham yuz o‘girish, ibodat uchun xalqdan ayrilib, xilvatga kirishdir”[1, 18].

TADQIQOT USUSLLARI

Globalashuv va migratsiya jarayonlari turli madaniy-diniy an‘analarni yonma-yon qo‘yib, ko‘plab holatlarda tushunmovchilik va kelishmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, so‘fiylik g‘oyalari orqali yoshlarga ma‘naviy-axloqiy ta‘lim berish, ularda har xil madaniyatlar va e‘tiqodlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni shakllantirishga yordam berishi mumkin. So‘fiylar tomonidan shakllantirilgan “muhabbat etikasi” nafaqat shaxsiy kamolotga erishishga yordam beradi, balki ijtimoiy munosabatlarda ham muhabbat va ahloqiy tozalikni ulug‘laydi.

Soʻfiylik, ayniqsa, yoshlar uchun yoshlarda murosa, teran mulohaza qilish, bagʻrikenglik kabi xislatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Soʻfiylikning asosiy gʻoyalariidan biri – inson va uning maʼnaviy kamolotiga ishonch, uning qadr-qimmatini tiklashda yordam beradi. Shuningdek, soʻfiylikning yana bir ahamiyatli jihati – uning jamiyatdagi tenglik va adolat gʻoyalariini targʻib qilishida koʻrinadi. Soʻfiylik faqat shaxsiy tarbiyani emas, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni taʼminlashni ham koʻzda tutadi. Bu yoshlarga odillik, mehr-shafqat kabi fazilatlarini oʻrgatishda muhim ahamiyatga ega boʻlishi mumkin. Shu bilan birga, soʻfiylikda xotin-qizlarning oʻrni ham diqqatga sazovor. Soʻfiylar tomonidan ayollarning jamiyatdagi oʻrni va roliga alohida eʼtibor qaratilgan, va ularning tajribalari, yoshlar tarbiyasida ijobiy samara berish mumkin. Ayollar soʻfiylik tajribasi yoshlarga maʼnaviy yetuklik va ruhiy muvozanatni oʻrgatishda ilhom manbai boʻlib xizmat qilishi mumkin. Bu jarayonlar orqali soʻfiylik gʻoyalari yoshlarga maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarining ahamiyatini tushuntirish, ularni axloqiy tarbiyalash va ijtimoiy barqarorlikka erishishda muhim oʻrin tutadi.

Soʻfiylik insoniyat maʼnaviyatini boyitish, insonning ichki dunyosi va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu uchrashuvda Abulfutux Axmad Gazaliy Tusiy kabi soʻfiylikning yirik namoyandalari oʻrganilishi talab etiladi. Uning soʻfiylik taʼlimoti, insonning ichki kamolotga erishishidagi rolini chuqurroq anglab olishga yordam beradi. Axmad Gazaliyning taʼlimoti yoshlar maʼnaviy-axloqiy tarbiyasi uchun muhim, chunki bu taʼlimot insonning vujudiy holatlarini, nafsni nazorat qilish, sabr va muruvvat kabi axloqiy sifatlarni kamolotga yetkazishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, soʻfiylik yoshlarning oʻzini anglash, nafs va ichki halovatni topish yoʻlida qoʻllanilishi mumkin.

Soʻfiylikning gumanistik asoslari, uning taʼlimoti insonlarning maʼnaviy rivojlanishiga, jamiyatda oʻzaro hurmat va madaniy muloqot oʻrnatishga xizmat qiladi. Soʻfiylik insonni barkamol, axloqli va maʼnaviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga yoʻnaltirilgan boʻlib, bu qadriyatlar zamonaviy yoshlar tarbiyasida alohida ahamiyatga ega.

Oʻzbekistondagi zamonaviy oʻzgarishlar jarayonida gumanizm va maʼnaviy-axloqiy tozalanish jarayoni ahamiyat kasb etayotgani, shuningdek, tarixiy-falsafiy ilmiy yoʻnalishlar yoshlar tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga egaligini koʻrsatadi. Najmidin Komilov yozadi: “Axmad Gazaliyning ijodi bu jarayonda yoshlarga yangi maʼnaviy qadriyatlar va hayotiy yoʻnalishlar berish imkonini yaratishi mumkin. Gazali nazariy va amaliy soʻfiylikka asoslangan asarlarida axloqiy tozalanish va inson tabiati kamolotini eʼtiborga oladi. Bu yoshlar tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki nafsni nazorat qilish va ruhiy kamolga yetish inson maʼnaviy rivojlanishining asosi sifatida qaraladi. Gazalining maʼnaviy kamolot yoʻli (tarik) jismoniy va ruhiy tarbiyani birlashtirgan holda, insonni barkamollikka olib keladi” [2, 448].

Axmad Gazali insonning Xudoga bo'lgan muhabbati orqali kamolotga erishishi haqida ta'kidlagan. Uni tarbiya jarayonida yoshlarga tatbiq qilish, ularda mehr-muhabbat, ezgulik va insoniylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. So'fiylik ta'limoti yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat va o'z jamiyatiga bo'lgan mehrni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Gazali insonning ruhiy taraqqiyoti va uning Xudoga bo'lgan yo'li haqidagi ta'limotlarini yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasining asosiga aylantirish mumkin. Gazalining axloqiy tarbiya va insonning erkin irodasi haqidagi ta'limoti yoshlar uchun javobgarlikni tushunish va o'z qarorlarini axloqiy asosda qabul qilish imkoniyatini beradi. So'fiylikning erkinlik va axloqiy tanlovlar bo'yicha qarashlari yoshlarga o'z shaxsini shakllantirishda va to'g'ri yo'lni tanlashda qo'llanishi mumkin. Gazalining ijtimoiy-falsafiy masalalarga bo'lgan e'tibori yoshlar tarbiyasida ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Uning ta'limotlari yoshlarni ijtimoiy o'zgarishlarda faol qatnashishga va jamiyat uchun foydali insonlar bo'lishga undaydi. Axmad Gazalining so'fiylik ta'limoti yoshlar tarbiyasida ularni ruhiy va axloqiy kamolga yetaklaydigan samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bu ta'limot yoshlarda ezgulik, ruhiy tozalanish va o'z shaxsiyatini axloqiy mezonlar asosida shakllantirishga qaratilgan.

Ta'lim-tarbiyada yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotiga ta'sir etuvchi g'oyalar ichida so'fiylikning alohida o'rni bor. Abu Xomid Muhammad al-G'azoliyning fikrlari bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ta'limoti insonning axloqiy yuksalishini va ruhiy kamolini markazga qo'yadi, bu esa yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. G'azoliyning so'fiylikka oid asarlari va undagi ma'naviy yo'l haqidagi ta'limot yoshlarda nafaqat ma'naviy kamolotga, balki axloqiy tozalanishga, jamiyatdagi ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarda komillikka erishishga undaydi. Uning nazariy merosi tarbiya jarayonida ruhiy muvozanat, axloqiy poklik, ichki ozodlik va ma'rifatga yetaklaydigan mukammal konsepsiyaga aylangan [3, 79].

Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf yozadi: "Xalqning qadimgi va hozirgi muxlislari da'vo qilganlaridek, uni to'g'ri gapni aytgani uchun ba'zi johillar qatl qilgan emas. Balki uni eng noto'g'ri gapni aytib, aytganida turib olganidan keyin, to'qqiz yil qamoqda qolib ham o'ziga kelmaganidan keyin musulmonlarning ijmo'i ila qatl qilishga hukm qilingan" [4, 210].

G'azoliyning "tariqat" doktrinasida yoshlarning axloqiy tarbiyasi yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilgan. Unda yoshlar nafs nazorati, ichki poklik va ma'naviy ruhiyatini yuksaltirish orqali jamiyatga foyda keltiradigan komil insonga aylanishlari mumkinligi ta'kidlanadi. G'azoliy yoshlar tarbiyasida ichki dunyoni ravnaq toptirish va o'zingni tanib olish g'oyalarini targ'ib qilgan, bu esa yoshlarda ma'naviy mustahkamlik va axloqiy asoslarni shakllantirishda muhim hisoblanadi. Yoshlar tarbiyasida G'azoliyning fikrlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan insonning shaxsiy va ijtimoiy javobgarligini hamda ma'naviy yuksalishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, so'fiylik g'oyalari yoshlarni nafs hirslaridan tozalanishga, ichki dunyosi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga

yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, Gʻazoliyning asarlari yoshlar tarbiyasida maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarning alohida ahamiyatini koʻrsatadi, bu esa ularning maʼnaviy yuksalishi va jamiyatga foydali inson boʻlib kamol topishida muhim asos boʻlib xizmat qiladi.

NATIJALAR

Tasavvuf tasavvufiy-falsafiy oqim sifatida islom olamida, jumladan, Oʻzbekistonda zamonaviy jamiyatda maʼnaviy-axloqiy madaniyat rivojiga katta taʼsir koʻrsatdi. Tasavvufning muhim xususiyati uning ijtimoiy-axloqiy falsafasi boʻlib, u yoshlarni tarbiyalash jarayonida qoʻl kelishi mumkin. Soʻfiylik tafakkuri nuqtai nazaridan botiniy oʻz-oʻzini takomillashtirish, tashqi va botinning aloqadorligi, bagʻrikenglik kabi asosiy gʻoyalar yosh avlodni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda asos boʻlib xizmat qilishi mumkin. Soʻfiylar tomonidan kiritilgan xayra tushunchasi tashqi va ichki, moddiy va maʼnaviy, dunyo va Xudoning oʻzaro kirib borishi haqidagi chuqur falsafiy gʻoyani aks ettiradi. Bu tamoyil yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega boʻlishi mumkin, chunki u tashqi harakatlar va ichki niyat oʻrtasidagi uygʻunlikning muhimligini taʼkidlaydi. Bu tamoyil orqali taʼlim-tarbiya yoshlarga oʻz harakatlari yuksak axloqiy qadriyatlarga mos kelishi kerakligini, moddiy voqelik esa maʼnaviy haqiqat bilan uzviy bogʻliqligini anglab yetishiga yordam beradi. Soʻfiylarning xudoni bilish va ilohiy hozirlikni doimiy jarayon sifatida tushunishi inson hayotining har bir daqiqasida Xudo bilan bevosita muloqotda boʻlishini koʻrsatadi. Yoshlarda ushbu soʻfiylik yondashuvi doimiy ravishda oʻzini-oʻzi takomillashtirish va oʻz harakatlari uchun masʼuliyatni anglash gʻoyasini rivojlantirish uchun muhim manba boʻlishi mumkin. Tasavvuf falsafasi taʼkidlaydiki, inson kamoloti nafaqat tashqi saʼy-harakatlar, balki oʻz ustidagi ichki mehnat, oʻz ichki ilohiy mohiyatini anglash orqali ham sodir boʻladi.

MUHOKAMA

Soʻfiylik gʻoyalari, avvalambor, insonning ichki dunyosi va maʼnaviy tozalanishga yoʻnaltirilgan boʻlib, axloqiy qadriyatlarning barqarorligini saqlashga harakat qiladi. Soʻfiylikda insonning maʼnaviy kamolotga erishishi uchun uning nafsini yengishi, oʻz «men»idan voz kechishi, xudbinlik va zohiriy manfaatlardan ustun boʻlgan ilohiy muhabbat va insonparvarlik gʻoyalarini qadrlashi zarurligi taʼkidlanadi. Bu gʻoyalar yoshlarning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Zamonaviy dunyoda yoshlar koʻpincha moddiy neʼmatlarga berilgan, texnik va iqtisodiy rivojlanishning taʼsirida. Soʻfiylik esa ularni ichki maʼnaviy dunyosini boyitish, axloqiy qadriyatlarga tayanishga chorlaydi. Bu jarayonda nafaqat shaxsiy maʼnaviy kamolotga, balki jamiyatning barqarorligiga ham xizmat qiladi.

XULOSA

Hozirgi axloqiy inqiroz sharoitida, moddiy foydalarga va individualizmga asoslangan yoshlar taʼlim tarbiyasida, soʻfiylik gʻoyalari nafaqat yoshlarni maʼnaviy komillikka yetaklaydi, balki ularda jamiyatga foydali, ijtimoiy masʼuliyatli va gumanistik qarashlarni shakllantirishga

yordam beradi. Soʻfiylikning insonni ijtimoiy mavjudlikning markaziga qoʻyganligi, uning maʼnaviy kamoloti va jamiyatga qoʻshayotgan hissasini juda muhim deb bilish mumkin. Shu bilan birga, soʻfiylik insonning axloqiy inqirozdan chiqishi uchun insoniy qadriyatlarni tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maʼnaviy qashshoqlik, zoʻravonlik va jamiyatdagi nizolarga qarshi insoniyatning yuqori axloqiy mezonlarga qaytishi va maʼnaviy olamni tiklash zarurati haqida soʻfiylikdagi gumanistik gʻoyalar oʻziga xos yechim taklif qiladi.

Shu maʼnoda, soʻfiylik yoshlar maʼnaviy tarbiyasida juda muhim vosita boʻlib, ularning axloqiy qarorlarini shakllantirishda, shaxsiy masʼuliyat va jamiyatga foyda keltirish kabi tushunchalarni yuksaltirishda foydalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Турор Усмон. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999. – Б. 18.
2. Komilov N. Tasavvuf. -Toshkent: Movarounnahr, 2009. – B. 448.
3. Gʻazzoliy A.Ihyou ulumid-din. Tafakkur kitobi.-Toshkent: Toshkent islom universiteti. 2007. – B. 79.
4. Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Т.: Мовароуннаҳр, 2004. – Б. 210.